



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING
YANGI BOSQICHI:
ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA
ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

1. B.B. Ma'murov – Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
2. Z.M. Muqimov – Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
3. G.R. Akramova – Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
4. X.A. Xaitov – Tillar fakulteti dekani, a'zo;
6. U.S.Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
7. D.B.Axmedova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
8. G.B.Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.R.Mirxanova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.A.Saidova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
11. Y.U.Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
12. Sh.Sh.Nizomova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
13. N.H.Hojiyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
14. M.U.Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
15. N.A.Bafoyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. N.O. Avazova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
17. S.T. Latipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo

ILMIY ANJUMANNING TASHKILY QO'MITASI

1. M.M. Bafayev – O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais;
2. M.L. Umedjanova – Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini;
3. U.S. Amonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo;
4. F.R.Rustamov – Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari
5. L.F. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
6. M.Y. Ro'ziyeva – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo;
7. Sh.M. Istamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
8. M.B. Sharipova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
9. G.B. Rustamova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
10. R.R. Xalilova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo;
11. M.U. Usmonova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
12. F.K. Nurova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo;
13. N.N. Mirjonov – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
14. M.Y. Latifova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
15. M.A. Tilavova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo;
16. M.V. Jabborova – O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

REALIYA -NEOLOGIZM, REALIYA-ARXAIZM VA REALIYA-TARIXIZMLAR

Jo'rayeva Laylo Jiyanqul qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
laylojurayeva@buxdpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada realiya tushunchasining tavsifi berilgan. Realialarning milliy xususiyatlarni aks ettirish masalalari yoritilgan. Realialarning mazmun-mohiyati ochilib, ularning neologizm, arxaizm hamda tarixizm xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: realiya, neologizm, arxaizm, tarixizm, realiya-onomastika, sumalak, chuchvara, xonim.

Realiya hamda madaniyat tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar sanaladi. Rus olimlaridan biri Y.S.Bugrisheva realiya-neologizm, realiya-onomastika mavzusidagi yaratgan tadqiqotlarida realialarni haqiqat, voqelik deya nomlab, unga quyidagicha ta'rif beradi: "Onomastik haqiqat – neologizmdir. Onomastik voqelik-neologizm - bu faqat ma'lum bir xalqqa xos bo'lgan madaniy xususiyatlarni ifodalovchi, mazmuni va ba'zi hollarda ifodasi jihatidan yangi bo'lgan, ma'lum bir davrda mavjud bo'lgan va oldingi davrlarda mavjud bo'lmagan leksemalardir".[1]

Neologizmlar hozirgi zamonda paydo bo'lgan yangi leksik birliklardir. Yangi paydo bo'lgan so'zlarni ham realiyalar doirasida ko'rish mumkin. Shunday so'zlar borki, ular ma'lum bir xalqning hayotida yangi paydo bo'lgan hamda shu xalqning neologizm realiyalari sanaladi. Bunga misol tariqasida bugungi kunda faol bo'lgan *kredit-modul* tushunchasini olish mumkin. U dastlab Amerikada yaratilgan bo'lib, shu yerdagi xalqning milliy o'qitish tizimidir.

Arxaizmlar ma'lumki, shakl o'zgarib, ma'nosi saqlangan so'zlardir. Shunday so'zlar borki, ular tariximizning ma'lum davrida milliy xarakterdagi so'zlar bo'lib, bugungi kunda shakli o'zgarib, ma'nosi saqlangan so'zlardir. Masalan, eski o'zbek adabiy tilidagi "abo" leksemasi "yengsiz ustki kiyim" ma'nosida qo'llanilgan. Bugungi kunda xuddi mana shu ma'noni adabiy tilda "nimcha", shevalarda esa "ichakcha" leksemasi orqali ifodalanadi. Yoki kasb-hunar ma'nosini anglatuvchi "baxyasoz" leksemasi *do'ppi tikuvchi* ma'nosini anglatib, bugungi kunda xuddi shu ma'no "do'ppido'z" leksemasi orqali ifodalanadi.

Istorizmlar esa iste'moldan chiqqan realiyalardir. Ya'ni shunday so'zlar borki, ular davr nuqtayi nazardan ma'lum bir vaqtda milliylikni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik bo'lmish realialarni aks ettiradi. Masalan, eski o'zbek adabiy tilida *qasab*, *qumosh*, *sayfur* kabi leksemalar milliy mato turlari; *xirqa*, *qabo* kabi kiyim nomlarini anglatuvchi leksemalar tarixiy realizm sanaladi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, realialarning eng ko'p qismi otlardan iborat bo'ladi. Masalan: rus tilida *vershovkiy*, *arshenniy*, *sajenniy*, *kopechniy*, *rubleviy*; o'zbek tilida *zig'ircha*, *arshin*, *bir mirlik* kabilar shular jumlasidandir. [2]

Realiya alohida jamoa yoki muassasa doirasida chegaralangan bo'lishi ham mumkin. Asosan, talabalar va harbiylar jargoni bunday realiyaga boydir. Ba'zi bir bu jargonizmlar lokalizm va professionalizmlar darajasiga o'tib ketadi. Davriy kolorit ham realiyaga xosdir. Madaniyat bilan chambarchas bog'liq til hodisasi sifatida ushbu leksik birliklar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlarga tez ta'sir qiladi. Ular orasidan neologizm, istorizm va arxaizm realiyalarini osongina ajratib ko'rsatish mumkin.

Masalan, o'tgan asrning 50-60 yillarida AQShda yosh avlodning isyoni tilda *beatnik*, *beat generation* (charchagan, singan, ko'ngli sovigan avlod) kabi so'zlarning paydo bo'lishi bilan aks etadi. [3]

Vujudga kelgan bu kabi realiyalar avvalo neologizm sifatida qabul qilindi, keyin asta-sekin boshqa tushuncha *hippie* (zamonaviy burjua jamiyati ahloqi va turmush tarzini rad

etuvchi hamda o'z noroziligini g'ayri odatiy kiyinishi va fe'l-atvori, o'zini tutishi bilan ifoda etuvchi yoshlar) ga almashdi.

Realiyada til va madaniyat o'rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo'lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o'zgarishlariga o'z ta'sirini ko'rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo'lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o'zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy "fonli" nozik farqlarni ham ifodalovchi ko'pgina so'zlar mavjud. Tilda "konnotativ so'zlar"ni leksik birlikning o'ziga xos tipi sifatida ajratish shak-shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya'ni so'zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi, ular so'z ma'nolaridan biriga bog'lanadi.

O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar hozirgi kunda butun dunyoga tanilmoqda. O'zbek milliy liboslariga ayollar uchun *zar chopon, do'ppi, kamzul*, erkaklar uchun *do'ppi, chopon, belbog'* va *yaktak* kabilar kiradi. O'zbek milliy libosi jahonda o'z o'rniga ega. Ular orasida *do'ppi* alohida o'ringa ega. U o'zbek xalqi orasida keng tarqalgan yengil bosh kiyim bo'lib, asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Realialar jumlasiga paranjini ham misol tarzida aytish mumkin. Uni o'zbek ayollari qadimda yuzlarini begona erkaklardan yashirish uchun yopinib yurishgan.

Realialarga yana quyidagilarni aytib o'tish mumkin. Dastlab kiyimlarni izohlashga harakat qilamiz:

zar chopon. O'zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi kiyim. U, asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o'zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir;

atlas, adras. Bu matolar qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek ayollari uchun sevib kiyadigan milliy matolardir. Ular ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o'tib ketsa ham bu matolardan o'z davriga moslab, xoh o'zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O'zbekistonda eng mashhur atlas Marg'ilon shahrida to'qiladi;

mahsi. Mahsi oyoq kiyimlardan biri bo'lib, uzun qo'njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo'lgan kovush bilan kiyiladigan milliy poyabzal hisoblangan.

Oziq-ovqatga doir realialar:

osh. Qadimdan to hozirgi kunga qadar o'zbek xalqining eng sevimli taomlaridan biri sifatida e'tirof etib kelinadi;

patir. Ushbu so'z omonimlik xususiyatiga ega bo'lib, O'TIL hamda O'zME da izohlangan: "Non turi. shirmoy patir, qashqari patir, ko'k patir, qiymali patir, patircha kabi turlari bor. [4]"

Realiya hamda madaniyat tushunchalari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar sanaladi. Har bir davrning o'ziga xos madaniyati bo'lgani kabi realialari ham mavjud bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan ularni sinxron hamda diaxron aspektda o'rganish kerak. Realialar neologizm, realialar arxaizm, realialar istorizm kabi tushunchalar davr nuqtayi nazar bilan bog'liq bo'lgan atamalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бугрышева Е.С. Ономастическая реалья-неологизм как лингвистический конструкт. ISSN 2224-0209 Электронный журнал «Вестник МГОУ» / www.vestnik-mgou.ru. – 2014. – № 2
2. Schreiber M. *Ubersetzung und Bearbeitung.* – Tuebingen: Narr Verlag, 2002. – 44 p.
3. Томахин Н.Д. Америка через американизмы. – Москва, 1988.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон Миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 237 б.
5. Mahmudov K. *O'zbek tansiqlik taomlari.* – T.: Mehnat, 1989. – 342 b.
6. Jo'rayeva, L. (2024). Alisher Navoiy asarlaridagi kiyim nomlarining lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(3), 124-127.

7. Laylo, J. R. (2024). Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat va o'simliklarning lingvomadaniy tadqiqi. *News of the NUUz*, 1(1.3), 299-302.
8. Juraeva Laylo Zhiyankulovna. (2025). The Relationship between Reality and Culture. *Miasto Przyszłości Kielce 2025*. ISSN-L: 2544-980X. 75-77.